


VIII. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhimi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning turlicligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari

(2024- yil yanvar-iyun)



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko‘rsatishni o‘z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste‘mol xizmatlarini ko‘rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish

(2024- yilning yanvar–iyun holatiga)


	mlrd. so'm	O'sish surati,%	Jamiga nisbatan, %
Xizmatlar-jami	14 779,8	111,8	100,0
shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	789,2	112,1	5,4
moliyaviy xizmatlar	3 302,1	118,3	22,3
transport xizmatlari	2 582,8	107,3	17,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>2 353,7</i>	<i>107,3</i>	<i>15,9</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	393,0	107,8	2,7
savdo xizmatlari	4 350,4	110,7	29,4
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	352,7	112,2	2,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	706,2	118,0	4,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	332,3	104,0	2,2
ijara xizmatlari	302,7	108,2	2,0
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	389,2	109,7	2,6
shaxsiy xizmatlar	763,8	110,8	5,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	112,1	107,7	0,8
boshqa xizmatlar	403,2	107,1	2,7

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (29,4%), moliyaviy xizmatlar (22,3 %), transport xizmatlari (17,5%) tashkil etgan.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,8 %), ijara xizmatlari (2,0 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2,2 %) tashkil etgan.


2024- yilning yanvar-iyun holatiga xizmatlar tarkibi

(jamiga nisbatan %da, katta ulushga ega bo'lganlar)




Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (jami xizmatlarning 29,4 %), moliyaviy xizmatlar (22,3 %), transport xizmatlari (17,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,4 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm




Joriy yilning yanvar - iyun oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlari 4 350,4 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar 3 302,1 mlrd.so'm, transport xizmatlari 2 582,8 mlrd.so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 789,2 mlrd. so'mni tashkil etganini ko'rish mumkin.

2024- yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



2024-yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Farg'ona viloyatida 312,0 mlrd.so'mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo'yicha xizmatlar 42,0 mlrd.so'm, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 269,7 mlrd.so'mni tashkil etgan.

2024- yil yanvar-iyun oylarida transport bo'yicha xizmatlar tarkibi,% da



2024-yil yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 2 582,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 2 353,7 mlrd.so'mni, jami transport xizmatlarining 91,1 %ini tashkil etadi.

Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish


(2024- yilning yanvar-iyun oylarida)

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd.so'm	2023- yil yanvar-iyun holatiga nisbatan %da	jami xizmatlar hajmiga nisbatan %da	ming so'm	2023-yil yanvar-iyun holatiga nisbatan %da
Farg'ona viloyati	14 779,8	111,8	100,0	3 622,4	109,5
<i>shaharlar:</i>					
Farg'ona	4 728,6	111,8	32,0	14 625,9	109,3
Qo'qon	2 516,0	111,9	17,0	8 126,5	110,2
Quvasoy	334,4	112,0	2,3	3 291,0	109,5
Marg'ilon	1 262,2	111,7	8,5	4 959,4	108,7
<i>tumanlar:</i>					
Oltiariq	625,7	111,9	4,2	2 726,4	109,6
Qo'shtepa	334,3	112,0	2,3	1 597,3	109,6
Bag'dod	319,1	111,8	2,2	1 363,3	109,4
Buvayda	581,2	112,0	3,9	2 338,8	109,4
Beshariq	386,9	111,7	2,6	1 588,1	109,7
Quva	392,6	111,9	2,7	1 418,2	109,9
Uchko'prik	552,5	112,0	3,7	2 276,3	109,5
Rishton	425,4	111,9	2,9	1 952,4	109,5
So'x	180,8	111,2	1,2	2 145,3	108,6
Toshloq	466,8	111,8	3,2	2 135,6	110,2
O'zbekiston	344,6	111,7	2,3	1 452,4	109,0
Farg'ona	468,4	112,0	3,2	2 105,3	109,7
Dang'ara	342,8	111,8	2,3	1 925,8	109,1
Furqat	236,1	111,9	1,6	1 849,2	109,5
Yozyovon	281,4	112,0	1,9	2 339,3	109,7

Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Uchko'prik tumaniga (112,0 %) va Buvayda tumaniga (112,0 %) to'g'ri keldi. Viloyat bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning yuqori ulushlari Farg'ona shahri (32,0 %), Qo'qon shahri (17,0 %), Marg'ilon shahri (8,5 %), Oltiariq (4,2 %) va Buvayda (3,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ulushlari So'x (1,2 %), Fuqat (1,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


2024- yilning yanvar-iyun holatiga xizmatlar sohasida ulushi katta bo'lgan hududlar

(jamiga nisbatan %da)



2024-yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3 622,4 ming so'mga teng bo'ldi. Uning o'sish sur'ati esa o'tgan yilga nisbatan 109,5 %ni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan eng katta xizmatlar hajmi Farg'ona (14 625,9 ming so'm), Qo'qon (8 126,5 ming so'm) va Marg'ilon (4 959,4 ming so'm) shaharlarida qayd etildi. Shuningdek, Quvasoy shahri (3 291,0 ming so'm), Oltiariq (2 726,4 ming so'm) va Buvayda (2 338,8 ming so'm) tumanlarida ham aholi jon boshiga xizmatlar hajmi salmoqli bo'ldi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Bag'dod tumanida (1 363,3 ming. so'm) kuzatildi, o'sish sur'ati 109,4 %ni tashkil etdi.